

UDK: 112.2. 821

**XX ASR NEMIS ADABIYOTIDA YOSHLAR MAVZUSI  
(ADIBLAR GENRIX MANN, TOMAS MANN, ERIX MARIYA REMARK  
VA ANNA ZEGERS ASARLARI MISOLIDA TAHLIL)**

**Guliston Shamuratova,**

*International School of Finance Technology and Science( ISFT)*

*E-mail: guliston.shamuratova@bk.ru*

*Tel : +99890 3220121*

*Filologiya fanlari doktori I.Rustamovning taqrizi asosida*

**Annotatsiya:** XX asr nemis adiblarining oliy maqsadlari - Germaniya jamiyatining bugungi kundagi ko'rishiga, ya'ni madaniyati yuksak, san'at va adabiyoti rivojlangan, hurfikr, farovon mamlakatga erishish edi, albatta. Demak, ular o'sha zamondan boshlab, aynan adabiyot yordamida yoshlar ongini o'zgartirishi orqali orzu-maqsadlarni amalga oshirish mumkin, deb bilganlar va bu vazifani o'zlarining mukammal ijodlari bilan yuksak darajada ado eta olganlar.

**Kalit so'zlar:** tahlil, mavzu, nemis adabiyoti, asar, roman, adib, ijtimoiy masala, avlod, yoshlar, urush, voqea, g'oya.

**THE THEME OF YOUTH IN GERMAN LITERATURE OF THE 20TH  
CENTURY (ANALYSIS USING THE EXAMPLE OF THE WORKS OF  
AUTHORS HEINRICH MANN, THOMAS MANN, ERICH MARIA  
REMARQUE AND ANNA ZEGERS)**

**Abstract:** The supreme goal of twentieth-century German writers was, of course, to achieve the present-day appearance of German society, a country with a high level of culture, advanced art and literature, and a prosperous, prosperous country. This means that from that time onwards, they knew that it was through literature that the dreams of young people could be realized through the transformation of their minds, and that they were able to accomplish this task to a high degree with their perfect creations.

**Keywords:** analysis, topic, German literature, work, novel, writer, social issue, generation, youth, war, event, idea.

**ТЕМА МОЛОДЕЖИ В НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА (АНАЛИЗ  
НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА АВТОРОВ ГЕНРИХА МАННА, ТОМАСА  
МАННА, ЭРИХА МАРИИ РЕМАРКА И АННЫ ЗЕГЕРС)**

**Аннотация:** Высшей целью немецких писателей XX века было, конечно, достижение современного облика немецкого общества, страны с высоким уровнем культуры, передовым искусством и литературой, благополучной, процветающей страны. Это означает, что с того времени они знали, что именно через литературу

*мечты молодых людей могут быть реализованы через преобразование их разума, и что они смогли выполнить эту задачу в высокой степени с помощью своих совершенных творений.*

**Ключевые слова:** анализ, тема, немецкая литература, произведение, роман, писатель, социальная проблема, поколение, молодежь, война, событие, идея.

## KIRISH

XX asr Germaniya adabiyoti xuddi Germaniya tarixi kabi juda ko'p o'zgarishlar va keskin ziddiyatlarga boy bo'lgan. Urushga tayyorgarlik, ikki marta Jahon urushi, ijodkorlarning siquvga olinishi, xorijga emigratsiyasi, revolyutsiyalar, urushdan keyingi tiklanishlar davri va boshqa juda ko'p siyosiy-ijtimoiy voqealarni boshidan kechirgan Germaniya adabiyoti ham izlanishlar, inqiroz, rivojlanishlar, gullab-yashnagan davrlarni boshidan kechirdi. Asr boshida ilm-fan, ayniqsa texnika sohasining keskin rivojlanishi tufayli hamda dinning boshi berk ko'chaga kirib qolishi, Yevropada ro'y bergan tarixiy-ijtimoiy voqealar ta'sirida nemis adabiyotida - romantizm va realizmdan tashqari naturalizm va pozitivizm; postnaturalizm: impressionizm, neoromantizm, simbolizm, estetizm; dekadans; modern: ekspressionizm, abastraksionizm, syurrealizm, pop-art va boshqa shu kabi juda ko'p oqimlar vujudga keldi. Bunday, ba'zan bir-biriga mos, ba'zan bir-biriga zid oqimlar uzoq vaqt "yashamagan" bo'lsada, lekin Germaniya adabiyotining keyingi rivojlanish jarayoniga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, XX asr boshida Germaniyada keskin rivojlangan falsafa sohasining (A.Shopengauer, F.Nisshe, Z.Freyd va boshqa shu kabi faylasuflarning) adabiyotga salmoqli ta'siri ham nemis adabiyotida keskin "yuqoriga sakrashlarga" sabab bo'ldi. T.Mann ("Buddenbroklar", "Sehrli tog'", "Doktor Faustus") va G.Mann ("Muallim Gnus", "Imperiya", "Qirol Genrix IVning yoshlik davri", "Qirol Genrix IVning balog'atga yetgan davri"), L.Feyxtvanger ("Goyya", "Opperman oilasi", "Omad"), G.Fallada ("Kichik odam, endi nima bo'ladi?", "Bo'rilar orasida bo'ri kabi", "Har bir odam yolg'iz o'ladi"), E.M.Remark ("G'arbiy frontda o'zgarishlar yo'q", "Qaytish", "Uch do'st", "G'alaba arki", "Hayot uchquni", "Yashash va o'lish davri"), B.Brext ("Uch pullik opera", "Galiley hayoti", "Kavkaz bo'r aylanasi", "Shaddot ona va uning bolalari"), F.Kafka ("Jarayon", "Qal'a", "Amerika" "Hulq tuzatish

koloniyasi”, “Hukm” novellari), S.Sveyg (“Yurakning sabrsizligi”, “Erazm Rotterdamskiyning shuhrati va falokati”, “Notanish ayolning xati”, “Amok”), R.Muzil (“Xususiyatsiz odam”, “Tarbiyalanuvchi Tyorlesning uyalishi”, “Uch ayol”), G.Brox (“Vergiliyning o’limi”, “Ta’qib”, “Uyquda yuruvchilar”) kabi adiblar hamda ko’pgina mukammal asarlar dunyoga keldi. Agar bu asarlar chuqur tahlil etilsa, mavzusida urush, revolyutsiya, sevgi muhabbat va boshqa ko’pgina ijtimoiy muhim masalalar qatorida yoshlar mavzusi ham ko’tarilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Birinchi misol va tahlil natijalarini Genrix Manning (Louis Heinrich Mann, 1871-1950) “Muallim Unrat” (“Uchitel Unrat” - Professor Unrat, 1905) asari orqali fikrimizni ifoda etsak. Adib bu asarida muallim Unrat haqida yozadi. Uning “yuqori darajadagi ta’lim-tarbiyasini” olayotgan “eng sevimli, aqlli, odobli” shogirdlaridan biri, aslida ilm-fandan hazar qiladigan Ersum juda shafqatsiz yigit bo’lgani uchun ustozga yoqib tushadi. Ersum har qanday jazoni bajarishga tayyor bo’lgani uchun Unratning o’ng qo’li hisoblanadi. Ikkinchi shogirdi Angst esa, o’ta qo’rqoq, agar Unrat uni biroz qo’rqitsa, barcha sir-asrornlarni sotadigan, vijdotsiz yigit bo’ladi. Ya’ni bir shogird - Kizelyak - o’g’ri va muttahaam, laganbardor va yolg’onchi yigit. Unrat bunday shogirdlari bilan maktabda har qanday voqeadan boxabar bo’la oladi, har qanday o’quvchini jazolay oladi. Hamda birovga tegishli har qanday moddiy buyumlarni o’zlashtira oladi va barcha toliblarni nazorat qila oladi.

Genrix Mann bunday shogirdlardan kelajakda qanday odamlar yetishib chiqishini dahshat bilan ko’z oldiga keltiradi. Shuning uchun, u prusscha ta’lim-tarbiyani, hurfikrlikka qarshi bo’lgan, iste’dodli yoshlarning tazyiq ostiga oladigan, qullarni yetishtirib chiqaradigan maktabni tanqid ostiga oladi. Adib ta’lim-tarbiyada yo’l qo’yilgan noto’g’ri tizim oqibati yoshlar ongiga qanday salbiy ta’sir etishi mumkinligini asarning asosiy g’oyasiga singdira olgan.

Bir qarashda Genrix Manning navbatdagi “Sadoqatli xizmatchi” (“Vernopoddанный” - Der Untertan, 1914) romani bor-yo’g’i Vilgelm madaniyati va g’oyalariga qarshi asar kabi ko’rinadi.

Aslida esa, bu asar yetukligi, mazmunining soddaligi, g’oyasining chuqurligi bilan kitobxonlar e’tiborini jalb etgan. Roman shakli - asar qahramoni – ishbilarmon



siyosatchi Diderix Geslingning oddiy hayotini birin ketin tasvirlashdan iborat. Lekin qahramon fonida, umumiy manzarada XIX asrdagi Germaniyaning ijtimoiy-siyosiy masalalari yoritilgan. Asar qahramoni Gesling obrazi asta sekin o'sib-ulg'aygani sari ijtimoiy muammolar ko'zga ko'proq tashlanadi. Uning otasi juda qattiqo'l va jahldor bo'lgani uchun ham yosh bola qo'rqqoq bo'lib o'sadi. Otasi uni doim urib jazolagani uchun, "adolat faqat kuchda" ekaniga amin bo'ladi. O'z singillarining zaifligidan foydalanib ularni jazolaydi. Maktab ta'sirida esa, asta-sekin vahshiy odamga aylanadi. Universitetga o'qishga kirganidan so'ng u yanada "sadoqatli xizmatchi", ya'ni shovinist, millatchi sifatida shakllanadi.

Gesling o'z qo'rqqoqligini, keyinchalik o'zining eng pastkash, qabih ishlarini oqlashga intiladi. O'zi sevgan, va'da bergan qizini aldaydi, uning otasi moliyaviy inqirozga uchrab, ishlari yurishmay qolganidan xabar topgan Gesling uylanishdan voz kechadi...

Adibning ulug' yozuvchiligi shundaki, Geslingni doim qora bo'yoqlar bilan tasvirlamaydi. Masalan, Gesling Agnesni chin dildan sevadi, hatto dunyoqarashi o'zgaradi, lekin, barcha ish moddiy manfaatga borib taqalganda qalbini yana o'sha eski xudbinlik egallaydi. Bu bilan muallif har bir odam ko'nglida manfaatparastlik ustun ekanini, insoniy yuksalish uchun esa, yoshlarga to'g'ri ta'lim-tarbiya, mehr-oqibat zarur ekanini ifodalamoqchi bo'ladi.

Genrix Mann opportunistlar funksiyasini bajarayotgan, aslida esa, qo'rqqoq va sotqin sotsial-demokratlarning ayyor siyosatini ochib tashlagan. Lekin shunday bo'lsada, "Sadoqatli xizmatchi" asari Genrix Mann tanqid ostiga olgan xudbin siyosatchi haqidagina emas, balki ana shu illatning qanday qilib yosh yigitning dunyoqarashiga kirib borgan, qalbidagi insoniy fazilatlarni "siqib, chiqarib" vahshiy diktatorga aylantirgani haqidagi asar, desak, adashmaymiz.

Genrix Manning ukasi Tomas Manning (Thomas Mann, 1875-1955) ijodi ham adabiyotshunoslar talqinida asosan ijtimoiy masalalarni yoritgan asarlar hisoblanadi. Nazariy jihatdan bu to'g'ri, albatta. Lekin birgina "Buddenbroklar" ("Buddenbroki" - Buddenbrooks. Verfall einer Familie, 1901) romanini tubdan tahlil etsak, oila haqidagi bu romanda ham asarda tasvir etilgan to'rt avlodning har birida aynan yoshlarning dunyoqarashidagi o'zgarishlar oqibati evaziga ro'y bergan

voqealar hamda ana shu voqealarga ularning munosabatlari va hatti-harakatlari izhor etilgan. Adib burjua jamiyatidagi ma'naviy qashshoqlikni - oiladagi yoshlar ongidagi iqirozlar orqali ifodalab bergan.

Asar birinchi avlod - Yogann Budenborkning hayotiy faoliyatidan boshlanadi. Quvnoq, tabiatan ziyrak, sog'lom, baquvvat, mard, mehnatkash savdogarning ishlari yurishib ketadi va u ancha-muncha boylik orttiradi. Erkin fikrlaydigan, mulohazali odam halol mehnatni har qanday urf-odatlardan, diniy ibodatlardan ustun qo'yadi. Shuning uchun, uning oilasi emin-erkin, osoyishta va o'ziga to'q turmush kechiradi.

Ikkinchi avlod - Yogann Budenborkning o'g'li - kichik Yogann Budenbork otasining ishlarini davom ettiradi. U o'qimishli, qonun-qoidalarini yaxshi biladi, pishiq-puxta bo'lgani uchun biznesni rivojlantiradi, oila farovonligini yanada kuchaytiradi. Lekin uning otasidan farqli tomoni shundaki, u dinga beriladi, milliy urf-odatlarni "qadrlaydi".

Uchinchi avlod - kichik Yogan Budenborkning farzandlari - aka-ukalar Tomas va Xristian hamda opa-singillar Toni va Klara oilada eskicha udumlarni kuchaytirib yuborishadi.

Tomas - iste'dodli, ishbilarmon odam, avval katta muvaffaqiyatlarga erishadi, hatto shahar senatiga a'zo bo'ladi. Lekin uning ishlari orqaga keta boshlaydi, ishlab chiqarish kasodga uchraydi. Hayotdan zavq olmay qoladi, ishlari bemaqsad ekanidan ruhiyatida o'zgarishlar ro'y beradi, ko'p siqiladigan bo'lib qoladi va bir kuni ko'chada fojia ro'y berib, u halok bo'ladi.

Xristian ham tushkunlikka tushadi, jismonan zaifroq bo'lgani uchun, tez-tez kasal bo'ladi. Uning ham ishlari yurishmaydi. Aslida esa, u mehnat ham qilmaydi, hech narsaga qiziqmaydi, dangasa bo'ladi. Lekin o'yin-kulgiga sarf-xarajatlarni ko'paytirib yuboradi. O'ziga o'xshagan yengiltak ayolga uylanadi va hayoti yanada izdan chiqadi. Oxir-oqibat uning mana shu xotini o'z erini aqli ojiz bemorlar kasalxonasiga yotqizib, undan "qutiladi"...

Fikrimizcha, adib jamiyatdagi muammolarning ildizida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalar asosiy sababchi deb emas, balki asosan yoshlarning ruhiy holati, ongining darajasi, ijtimoiy kelib chiqishi va fe'l-atvorlarning o'ziga xosligi tufayli, deb biladi. Shuning uchun, "Budenbroklar" romani psixologik jihatdan chuqur va

to'g'ri qurilgan badiiy asar hamda yoshlar ongida ijobiy o'zgarishlar yasashida, tarbiyalashida ahamiyatga ega roman hisoblanadi.

Erix Mariya Remark (Erich Maria Remarque, 1898-1970) o'z davrida shu darajada mashhur bo'lganki, uning asarlari turli tillarga tarjima qilingan, kitoblari deyarli butun dunyoga tarqalgan. O'zbek kitobxonlari ham Remarkning ijodi bilan yaxshi tanish.

Remark dastlabki asarlaridan boshlab, arosatda qolgan avlod, o'zligini yo'qotgan yoshlar, urush va o'tish davrining qurbonlari haqida yoza boshlagan. Urushdan qaytib kelgan yoshlar tirik qolgani bilan ularda qandaydir hayotga nisbatan zavq, shodonlik, orzu-umid "yo'qolgani, o'lgani" haqida mulohaza yuritgan. Adib bu haqda o'zi shunday yozadi: "Men urush nafaqat iqtisodiy zarar keltirishi, balki bir necha avlodning ma'naviy qarashlarini, tafakkurining jarohatlashini tasvirlashga harakat qildim". Haqiqatdan ham, adib asarlarida o'tish davridagi yoshlarning atrofida ro'y berayotgan o'zgarishlarning og'ir oqibati, qayerdadir bo'layotgan yoki bo'lib o'tgan urushlarning ma'nan ularni ezib turishini, ziddiyatlar ildizini tushunmasligini va o'zgartira olmasliklarini, davrning shiddatli va shafqatsiz haqiqati qarshisida ularning o'ta zaifligini, lekin insoniylik fazilatini yo'qotmaslikka intilishini juda ifodali tasvirlagan.

Remark urush vaqtida armiyada xizmat qiladi (1916-yil), urushning barcha dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'radi. Lekin 1917-yilda og'ir yaralanadi va bir necha oy hospitalda davolanadi. Shuning uchun, uning asarlarida urush kartinalari juda jonli, aniq, har bir detallarigacha ham hayotiy, ham badiiy tasvirlangan.

Remark urushdan keyin o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Lekin bu kasb uni qoniqtirmaydi. Maktabdan ketib, roman yozishga kirishadi. Remark birinchi asaridayoq "Orqaga yo'l" ("Vozvrasheniye" - Der Weg zurück, 1931) romanida urushdan qaytib kelgan askar nazari bilan yolg'on, sun'iylik, aldamni tasvirlaydi. Yigit bir burda non uchun odamlar nega bunchalik bir-birini aldashini tushunolmaydi, iflos ishlarni bajarib pul topgan kishilarning halol kishilarni mensimasligini ko'rib hayron qoladi. Afsus, roman qahramoni o'y-fikrlarining tagiga yetolmaydi, savollarga javob topolmaydi. Lekin shunday bo'lsada, asar yoshlarni mulohaza yuritishga undaydi...



Adibning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" ("Na Zapadnom fronte bez peremen" - Im Westen nichts Neues roman, 1928), "Uch do'st" ("Tri tovarışça" - Drei Kameraden, 1932), "Qora obelisk" (Chyornyy obelisk« - Der schwarze Obelisk, 1956) "G'alaba arki" ("Triumfal'naya árka" - Arc de Triomphe, 1945, 1946) asarlarida ham aynan yoshlar dunyoqarashidagi o'zgarishlar oqibatlarini, ziddiyatlarni mohirona ifodalaydi.

Anna Zegersning mashhur asari "Barhayot o'liklar" ("Mertvyye ostayutsya molodymi" - Die Toten bleiben jung, 1949) romani Germaniyadagi 1918-1943-yillar orasidagi tarixiy voqealarni ichiga oladi: Saksoniya va Rurdagi sinfiy kurashlar, mamlakatdagi inflyatsiya va Prezident saylovi, Reyxstagning yondirib yuborilishi va Myunxen kelishuvi, Ikkinchi Jahon urushi va boshqalar bilan bog'liq. Albatta, Anna Zegers bu voqealarni tarixchi sifatida emas, balki yozuvchi sifatida ularning mazmun mohiyatini ochib bergan. Nemis xalqining turli qatlamlarini o'ziga xosligini ifodalashga intilgan.

Roman yosh ishchi Ervinning o'lim jazosi bilan boshlanadi. Ervin o'z sevgilisi Mariyaga revolyutsioner ekanini aytishga ulgurmay qoladi. Qachonlardir quvnoq hayotni va tabiatni sevgan Mariya uning qayerga "yo'qolganini" bilmaydi hamda Ervindan tug'ilgan o'g'li Gansning kelajagini o'ylab, ishchi Geshkaga turmushga chiqadi. Mariya asta-sekin fashizm ishchilarni aldab, bosqinchilikka tayyorlayotganini, ularning vahshiy rejalari borligini seza boshlaydi va urushga qarshi kurashga bel bog'laydi. Uning o'g'li Gans ham yigit bo'la boshlagan sari, atrofda ro'y berayotgan voqealarni ongli ravishda tushunadi. Ayniqsa, uning dunyoqarashiga ta'sir qilgan, qachonlardir Ervinning do'sti bo'lgan ishchi Martin unga o'rnak ko'rsatadi. Gans o'zgaradi. Lekin uni harbiy xizmatga chaqirib, frontga yuborishadi. Frontda u ruslar tomoniga o'tib ketmoqchi bo'ladi. Shunda Venslov uni o'ldiradi. Xuddi o'sha Ervinning o'lim jazosini amalaga oshirgan Venslov endi uning o'g'lini o'ldiradi. Venslov halok bo'lgan Gansning yuziga qarab turib, Ervinni eslaydi va shu topda Gitler va uning fashistik tuzumi nemis xalqini noto'g'ri yo'ldan boshlab ketayotganini tushunib yetadi. Jannat va farovonlikni va'da qilgan fashizm aslida falokatdan boshqa narsa emasligiga, urushni vujudga keltirib, nemis ishchilaridan faqat qurol sifatida foydalanayotganiga iqror bo'ladi. Qachonlardir urushga qarshi

fikr bildirgan va halok bo'lgan Ervinni, unga ikki tomchidek o'xshash Gans qiyofasida go'yoki vatanparvar ishchi yosh yigitligicha qolganini ko'rib, o'liklarning barhayotligiga, aniqrog'i ularning urushga qarshi g'oyalari umrbod ekaniga ishonadi.

Anna Zegersning "Barhayot o'liklar" romani beqiyos epik polotno hisoblanadi. Adiba bu asari orqali fashizmning chuqur ildizini ochib berish bilan birga yoshlar tarixdan saboq chiqarib, kelajakda to'g'ri yo'ldan yurishiga ishonadi...

### XULOSA

Biz to'rt yirik adibning romanlari orqali asar yosh qahramonlarning bir-biriga o'xshash va shu bilan birga farqli dunyoqarashini hamda ular ongining bosqichma-bosqich o'sib borganini kuzatish mumkinligini, bu bilan XX asr nemis adabiyotida yoshlar mavzusi deyarli markaziy masalalardan biri ekanni isbotlashga harkat qildik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Н.А.Гуляев, И.П.Шибанов, В.С.Буняев, Н.Т.Лопырев, Е.М.Мандель. История немецкой литературы. Москва, "Высшая школа", 1975 г.
2. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи, XVIII-XX асрлар. Т., "Ўқитувчи", 1987.
3. Павлова Н.С. Типология немецкого романа: 1900—1945. М., 1982.
4. Пронин В.А. История немецкой литературы: Учеб.пособие. –М.: Унверситетская книга, Логос, 2007.
5. Генрих Манн. Учитель Унрат, или Конец одного тирана. Москва, Гослитиздат, 1937.
6. Herman G. Weinberg, 1967. p. 48 (footnote): "In German, the name "Rat" has the connotation of "counselor", but the Professor's students nickname his "unrat" - "unclean" (or even merde)." in Josef von Sternberg. A Critical Study. New York: Dutton, 1967.
7. Генрих Манн. Верноподданный. Художественная литература. Москва, 1982.
8. Томас Манн. Крушение семьи (Будденброки). Пер. Ю.Спасского. -М.: Московское книгоиздательство, 1911.
9. Buddenbrooks. Frankfurter Ausgabe. Herausgegeben und kommentiert von Peter de Mendelssohn, S. Fischer, Frankfurt am Main 1981.
10. Эрих Мария Ремарк. На Западном фронте без перемен. Возвращение. Пер. с нем. - М.: АСТ Москва, Хранитель, 2007.
11. Анна Зегерс. Собрание сочинений в шести томах. М.: Художественная литература, 1982-1984.